

---

## BRITANIYALIK SAYYOHLARNING HAYRATI

Sayyohlarni lol qoldirayotgan Rishton

Bugungi kunda tumanimizga dunyoning turli mamlakatlaridan sayyohlar kelishi odatga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning barchasi Rishton tumanidan katta taassurot bilan o'z yurtlariga qaytib ketishmoqda.

Tumanimizga Buyuk Britaniyadan tashrif buyurgan mehmonlar dastlab Ar-Roshidoniylar ziyoratgohi va Xo'ja Ilg'or masjidida bo'lishib, bu yerdagi tarixiy saqlanib qolgan joylarini kuzdan kechirishdi.

Shundan so'ng, "Mingboshi keramik" kulolchilik muzeyida bo'lgan britaniyaliklar, kulolchilik mahsulotlari bilan tanishishdan tashqari, tayyorlash jarayonlarini ham maroq bilan tomosha qilishdi. Muzeyda murakkab hamda nafis naqshlar, o'ziga xos uslubda yaratilgan, tabiat manzaralari tushirilgan turli ko'rinishdagi serjilo idishlar va kulolchilik buyumlari joylashgan. Ushbu tashrif xorijlik sayyohlarda katta taassurot qoldirdi. Ular rishtonlik usta kulollar tomonidan yaratilgan bir-biridan go'zal san'at asarlarini katta qiziqish bilan tomosha qilgan ekan o'zlarining hayratlarni yashira olishmadi.

2024-04-30 10:00:02